

Ginekologiya va urologiya sohalaridagi omonimik xususiyatlarni tasniflash tamoyillari xususida

Rasulova Nilufar Abuvossiyevna
O'zDJTU Ingliz tili amaliy aspektlari kafedrası
v.b.dotsenti, PhD
nilufar_rasulova@inbox.ru

Annotatsiya: O'zbek va ingliz tillaridagi urologik va ginekologik terminlarni ilmiy o'rganishlarimiz natijasida har ikki tilda ham omonimlik xususiyatlari mavjud ekanligini aniqladik. Shu sababli mazkur maqolada omonimiya hodisasini o'rganishning doirasi ancha kengayganligini inobatga olib, ayrim terminlarni tahlilga tortdik.

Kalit so'zlar: leksik birlik, muloqot, lingvistik universalisa, semantika, klassifikatsiya, shakldoshlik, so'z shakli

Tildagi omonim va omonimiya hodisasi shu kungacha faqat tilning leksik va morfologik sathi obyekti sifatidagina o'rganilib kelingani barchamizga ayon. Ma'lumki, omonim so'zlar shakli bir xil, ammo semantikasi turfa xil bo'lgan leksik birliklardir. So'z omonimligi – shakldoshlik so'z asosida bo'ladi, ya'ni muayyan so'z bir so'z turkumi yoki bir necha turkumga mansub ma'no beradi.

Wikipediya omonimlarga quyidagicha ta'rif berilgan: **Omonimlar** – umumiy ma'no unsurlariga ega bo'lgan, tasavvuriy bog'lanmagan, lekin bir xil yozilib, bir xil aytiladigan so'zlar; ular orasida semantik aloqa bo'lmaydi. ... Shakldoshlik so'zlar aytilishi va eshitilishi bir xil, ammo ma'nolarining boshqa-boshqa bo'lganligi tufayli jumlar ichida aniqlanadi va uning xilma-xilligini ta'minlashga xizmat qiladi.

L.V.Malaxovskiyning ta'kidlashicha, "...agar, mobodo, omonimlardan holi bo'lgan til aniqlanganda ham yoki qaysidir jamoa muloqot vositasi sifatida omonimlardan butkul holi bo'lgan qandaydir sun'iy til ishlab chiqqanda va undan foydalanganda ham, ushbu tilning tabiiy rivojlanishi natijasida o'sha tilda ham so'zsiz omonimlar yuzaga kelgan bo'lardi", deya ta'kidlaydi. Shuningdek, olim "...omonimiya muayyan tilning asrlar davomidagi uzluksiz tadrijiy rivojlanish qonuniyatining natijasini o'zida namoyon etuvchi, mutloq lingvistik universalisa", deb hisoblaydi.

Ingliz tilidagi omonim va omonimlar klassifikatsiyalarini taniqli chet el tilshunoslari Arrakin, Kabanov, Arnold kabilar qolaversa, Lion, Smirnitkiylar ham aniqlashga harakat qilishgan. A.I.Smirnitkiy omonimlarni ikkita katta sinfga ajratdi: to'liq omonimlar va qisman omonimlar.

N.Rasulovanning "Ingliz-o'zbek tillaridagi tibbiyot terminlarining o'quv lug'atini tuzish tamoyillari" nomli nomzodlik dissertatsiyasida omonimik terminlar klassifikatsiyasining muammolari hozirgi kungacha terminologiyaning muhim muammolaridan biri ekanligi, ingliz tilining tibbiy terminologiyasida to'liq, to'liq bo'lmagan va qisman omonimlar mavjud ekanligi, termin-omonimlar omofon va omograflarni o'z ichiga qamrab olishi to'g'risida ta'kidlagan.

Bir tilda mavjud omonimik xususiyatli terminlar bir tildan boshqa tilga tarjima qilinganda, o'zining omonimik xususiyatini butunlay yo'qotadi.

O'zbek va ingliz tillaridagi urologik va ginekologik terminlarni ilmiy o'rganishlarimiz natijasida har ikki tilda ham omonimlik xususiyatlar mavjud ekanligini aniqladik. Shu sababli mazkur maqolada omonimiya hodisasini o'rganishning doirasi ancha kengayganligini inobatga olib, ayrim terminlarni tahlilga tortdik.

Ingliz tilidagi shakldosh so'z	1-ma'nosi	2-ma'nosi	3-ma'nosi	4-ma'nosi
--------------------------------	-----------	-----------	-----------	-----------

abortion	ko‘pincha homiladorlikning dastlabki 28 haftasida amalga oshiriladigan inson homiladorligini ataylab to‘xtatish	yoqimsiz yoki yomon qilingan yoki amalga oshirilgan obyekt yoki ish		
agglutination test	ayolning homiladorligini aniqlash uchun test	bakteriyalarni aniqlash uchun test		
aftercare	yangi tug‘ilgan onaning g‘amxo‘rligi	operatsiya qilingan odamga g‘amxo‘rlik qilish		
baby	juda yosh bola, ayniqsa yangi yoki yaqinda tug‘ilgan	biror kishi, ayniqsa romantik sherik uchun mehr-muhabbat atamasi		
birth	onaning tanasidan chaqaloqning paydo bo‘lishi; jismonan alohida mavjudot sifatida hayotning boshlanishi	biror narsaning kelib chiqishi yoki boshlanishi	tug‘ilish	
crowning	toj kiydirish	tug‘ruq paytida chaqaloq kallasining ko‘rinishi		
midwife	tug‘ishda ayollarga yordam beradigan shaxs	biror narsani ishlab chiqarishga yoki keltirib chiqarishga yordam beradigan		

penis	erkak jinsiy a'zosi	zoologiyada ba'zi umurtqasiz hayvonlarda erkak kopulyatsiya organining bir turi		
probing	biror narsani chuqur yoki izlanish yo'li bilan tekshirish, tekshirish yoki o'rganish harakati yoki amaliyoti	zond yoki har xil asboblari, asboblari yordamida biror narsani tekshirish yoki tadqiq qilish harakati	kompyuterlar tarmog'ini, ma'lumotlar bazasini, veb-sahifani, veb-ilorani va boshqalarni uning tuzilishi va hujumni boshlash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan har qanday xavfsizlik zaif tomonlari haqida ma'lumot olish uchun skanerlash jarayoni: dushman tomonlar tomonidan g'arazli tarzda yoki diagnostik va profilaktika maqsadida amalga oshiriladi	
smear	yopishqoq modda, mazok	odatda shaxsga yoki tashkilotga qarshi asossiz ayblov	iflos qilmoq, kir qilmoq	Smear Lake Smeya ko'li (AQSh)
vagina	ayol jinsiy a'zosi	botanikada bargning tagida poya atrofida hosil bo'lgan g'ilof		
venereal	jinsiy harakatlar yoki jinsiy	jinsiy a'zolar bilan bog'liq	jinsiy aloqa orqali yuqadigan infektsiya yoki kasallikni	

	istak bilan bog'liq		nazarda tutuvchi venerik sigillary	
womb	bachadon	biror narsa hosil bo'ladigan joy		

Omonimlarga yaqin so'zlar ma'nosi turlicha, yozilishi o'xshash, talaffuzi qisman o'xshash so'zlardir.

effusion	Suyuqlikning (masalan, qon, limfa, sarum) tanaga chiqishi, ko'pincha qon aylanishi va buyrak kasalliklari bilan bog'liqligi
affusion	biror narsaga yoki kimgadir suyuqlik quyish
staunch	qon ketishini to'xtatmoq
stanch	tik turish
wound	qonning chiqib ketishiga imkon beruvchi tashqi to'qimalarning shikastlanishi
wound	wind fe'lining o'tgan zamon shakli

O'zbek tilidagi shakldosh so'z	1-ma'nosi	2-ma'nosi	3-ma'nosi	4-ma'nosi
parda	qizlik pardasi	xonani quyosh nuri, shamol, yot ko'zdan to'sish yoki bezak uchun deraza va eshiklarga tutiladigan matolar	dramatik asar, teatr spektaklining bo'limi	
sunnat	o'g'il bolalar ismi	hadislarda targ'ib etilgan, ibodatda ham, muomalada ham qo'llaniladigan amal	o'g'il bolani xatna qilish	
saraton	ko'krak saratoni	yozning saratoni		
urug'	erkaklik jinsiy hujayra	botanikada o'simlik urug'i		
chilla	bola tuqqan yoki tug'ilgandan, qiz turmushga chiqqandan, yigit uylangandan, marhum ko'milgan kundan keyingi 40 kunlik davr: turmushdagi ba'zi hodisa-	yilning eng issiq yoki eng sovuq 40 kuni. qish chillasi yoki qish ki chilla 25-dekabrda 5-fevralgacha bo'lgan eng sovuq qirq kun. Yoz chillasi yoki yoz	so'fiy yoki murid ning yakka o'zi alohida xona(xujra)da, odamlardan yashirinib, 40 kun davomida toat-ibodat qilishi	chilla suvi - yoz chillasida ekinlarga beriladigan suv

	holatlarning eng mas'uliyatli davri	gi chilla 25-iyundan 5-avgustgacha bo'lgan eng issiq 40 kun		
chala	muddatiga yetmay chala tug'ilgan chaqaloq	o'zbek kurashiga oid atama	qo'shma so'zlar tarkibiga kiradi: chalabosh, chalas avod	
yetilgan	yetilgan homila	yetilgan meva		
nasl	bir avlod-ajdodga mansub kishilar urug'i, ularning kelib chiqishi, zoti, nasabi, tagi-taxti	kelajak avlod, zurriyot	biol. ma'lum belgi-xususiyatlarga ega, bir turga mansub o'simliklar, bir zotga mansub hayvonlar guruhi; urug', zot	
so'rg'ich	emizikli bolalar so'radigan rezina buyum	anat. teri va shilliqparda sirtidagi sezgir do'mboqchalar	bot. chirmashib o'sadigan parazit o'simlikning tuksimon o'simalari	
tug'ma	kishida tug'ilishdanoq paydo bo'lgan, aslida bor bo'lgan. <i>tug'ma soqov. tug'ma oqsoq</i>	tabiiy holda mavjud bo'lgan. <i>tug'ma minerallar</i>	tug'ilishdan biror ish-faoliyat uchun yaratilgan, shunday xususiyatga ega bo'lgan: <i>tug'ma qobiliyat</i>	
taloq	nikohni buzish, bekor qilish haqidagi er tomonidan aytiladigan so'z	qiz xotin kabi so'zlar bilan qo'llanib (odatda qo'shma so'z sifatida), shu so'zga nisbatli so'kishni, haqoratni bildiradi	organ nomi, qon yaratuvchi a'zo	
yo'ldosh	hamroh	biror planeta yoki yulduz atrofida harakat qiluvchi osmon jismi	homiladorlik paytida homilani ona tanasi bilan bog'lab turadigan, bola tug'ilgach	erkaklar ismi

			undan keyin tushadigan, homila pardalari va kindik tizimchasidan iborat tuzilma	
--	--	--	--	--

Omonimik terminlarning tahlillari shuni ko'rsatadiki, ular turlicha bir-biriga bog'liq bo'lmagan tushunchalar orqali farq qiladi.

Xulosa qilib aytganda, har ikki tilda ham omonimlik xususiyatlari mavjud, terminning asl ma'nosini faqat kontekstdangina aniqlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Большакова Е.И. Автоматическая обработка текстов на естественном языке и компьютерная лингвистика. Учебное пособие / Большакова Е.И., Клышинский Э.С., Ландэ Д.В., Носков А.А., Пескова О.В., Ягунова Е.В. – Москва: МИЭМ, 2011. – 272 с.

2. Порохнин А.А. Анализ статистических методов снятия омонимии в текстах на русском языке. Вестник АГТУ. Сер.: Управление, вычислительная техника и информатика. – 2013. № 2. – С. 168-174. 3. Rahmatullayev Sh. O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1984. – B.5.

3. Abjalova M. Tahrir va tahlil dasturlarining lingvistik modullari: Monografiya. – Toshkent, 2020. – B. 25-27.

4. N.Rasulova Ingliz-o'zbek tillaridagi tibbiyot terminlarining o'quv lug'atini tuzish tamoyillari, diss. avt.– Andijon, 2022. – B. 140-147.

5. Rizayev S. O'zbek tilshunosligida lingvostatistika asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – B. 18.

6. Малаховский Л. В. Теория лексической и грамматической омонимии. — Л.: Наука, 1990. — 240 с.

7. Маслов Ю. С. Омонимы в словарях и омонимия в языке (к постановке вопроса) // Вопросы теории и истории языка: сб. в честь проф. Б. А. Ларина. — Л.: Изд-во Ленинград. ун-та, 1963. — С. 128–202.